

O'QUVCHILARGA INSHO YOZDIRISH ORQALI TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

Inobat Ibodullayeva
Nukus DPI 1-bosqich doktoranti

Bizga ma'lumki, bugungi kunda, nafaqat, maktab o'quvchilarini, balki o'sib kelayotgan barcha yoshlarimizni, avvalo, erkin fikrlashga va uni og'zaki va yozma ravishda dadil, bexato yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim sanaladi. Bolada erkin fikrlashni, tafakkur yuritish qobiliyatini shakllantirish uchun biror mavzuga yoki hodisaga o'zining qarashi bo'lishi kerak va uni so'zlarda ta'sirli yetkazib bera olishi kerak. Bunday qobiliyatlarni shakllantirishda insho yozishning o'rni beqiyos.

Insho so'zi arabcha bo'lib, "yozish", "belgilab qo'yish", "ijod qilish" ma'nolarini bildiradi. Insho – o'quvchining muayyan mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini tilning grammatik qoidalariga muvofiq tarzda mustaqil yozma bayon qilish usuli.

O'quvchida insho yozayotgan paytda nafaqat bolada ruchka bilan yozish harakati, balki mavzu yuzasidan o'ylash, fikrlash, fikrlarini jamlash, ixchamlashtirish, bir-biriga o'xshamagan sinonim so'zlarni tanlab ishlatish, mavzuga mos mazmunni ochib berish va boshqa harakatlar tafakkur etiladi va buni bir vaqtning o'zida amalga oshiradi. Endi faraz qilaylik, bitta mavzu bo'yicha insho yozgan bolada tafakkur etish qobiliyati shu darajada faollashadigan bo'lsa, darslarimiz davomida, haftasiga, oyiga nechta insho yozdiramiz va bolada tafakkur etish, erkin fikrlash, fikrlarini saralay olish qobiliyatlarini oshirish imkoniga ega bo'lar ekanmiz. Shunday ekan, o'quvchilarga insho yozdirish orqali ularning tafakkurini shakllantirishimiz mumkin ekan. O'quvchilarga bir nechta mavzular orasidan bitta mavzuni tanlash, shu mavzu yuzasidan insho yozdirish mumkin yoki o'quvchilarga erkin mavzuda insho yozish (o'zlari xohlagan bitta mavzuda) topshirig'ini berishimiz mumkin bo'ladi. Insho yozdirganda eng ahamiyatlisi shundaki, tanlangan mavzular bolaning yoshiga, ijtimoiy, oilaviy hayotiga juda mos kelishi zarur.

O'quvchilarni inshoga tayyorlashdagi omillardan biri o'qituvchining bayonidir. O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida mavzuni yozib borishga o'rgatishi lozim. Chunki, o'qituvchi biror mavzu ustida gapirar ekan, mavzuni asoslashga, asosiy qismlarni qo'shimcha adabiyotlardan xarakterli parchalar keltirgan holda, aniq, ravon yoritib berishga, tegishli xulosalar chiqarishga alohida

ahamiyat beradi. Buning uchun o'qituvchi darsga nihoyatda puxta tayyorgarlik ko'rishi, mavzuning rejasini doskaga yozib qo'yishi yoki aytib turishi va reja asosida ma'ruza qilishi, o'quvchilarning saviyasiga to'g'ri keladigan qo'shimcha adabiyotlar tavsiya qilishi kerak. Ularni faqat inshodagina emas, darsda ham reja asosida og'zaki javob berishga o'rgatish kerak.[1: 93-b]

Milliy metodika ilmida metodist olimlarimiz tomonidan insho yozish qonun-qoidalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar qilingan. Jumladan, mashhur metodist olim S.Dolimovning: "Sinfda o'qituvchi rahbarligida analiz etilgan asar muhokama tarzida insho yozish uchun o'quvchilarga tayyor material beradi. Bu tayyor material tezis shaklida bo'lib, buni o'quvchi mustaqil ravishda kengaytirishi, faktlar bilan o'z fikrini isbotlashi va ...mustaqil ravishda tsitatalar kiritishi lozim", – deya tavsiya beradi. [2:12-b]

Inshoni mazmunli yozish va berilgan mavzuni chuqur yoritishga erishish uchun o'quvchi oldin inshoga tegishli bo'lgan mavzu, epigraf, reja, tezis, dalil, kirish, asosiy qism, xulosa kabi tushunchalarni puxta o'zlashtirib olishi zarur. Chunki mavzuning mazmunini ochib berish uchun ongda shakllangan fikrlarni ketma-ketlikda, tartib bilan, so'z ma'nolarini uyg'unlashtirish qog'ozga tushirish lozim. Buning qonun-qoidasi puxta o'rganib olish zarur. Insho yozdirishdan maqsad o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish, ularni har qanday murakkab fikr-mulohaza va his-tuyg'ularni tushunarli, savodli hamda ta'sirli qilib ifodalab berishga o'rgatishdan iboratdir. Shu boisdan insho yozish tilning grammatik qoidalariga uzviy bog'langan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarda erkin fikrlash, fikrlash doirasini kengaytirish, voqea-hodisa haqida mazmunli fikrlarni tartibli bayon eta olish qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kunda muhim masalalardan biri. Shu sababli o'quvchilarga insho yozdirish orqali tafakkurini o'stirish eng samarali yo'llardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Qodirov, U. Dolimov, M. A'lamova O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma). – T: "O'qituvchi", 1993
2. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. – T: "O'qituvchi", 1968
3. Qzilgul Turdimetovna Karbayeva "Maktab adabiy ta'limida insho yozdirish, uni tekshirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari" maqolasi: SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 3-b.
4. Худаярова, М. Т., & Хасанова, А. Н. (2017). Этнопедагогические воззрения каракалпаков важнейший источник семейного воспитания

и социальной адаптации детей. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 77-82).

5. Yusupova, G. A., Khudayorova, M. T., Buranova, S. M., Atiyazov, S. J., & Allanazarova, A. (2021). Formation of linguistic competencies in the uzbek language in future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 335-341.
- 6.

